

YUQORI STANDARTLAR ASOSIDA

Bugun davlatimiz tomonidan iqtisodiyotning muhim bo'g'ini – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganligi, joylarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining izchil rivoji yangi ish o'rinlari yaratilishiga asos bo'lmoqda. Zero, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar ichki bozorda import o'rnini bosuvchi, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirish barobarida, davlatimiz eksport salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining ortib borayotgani ichki bozorni raqobatbardosh tovarlar bilan to'ldirish, zamon talablari asosida xizmatlar ko'rsatish, eksportbop mahsulotlarni ko'paytirish, yangi ish o'rinlarini yaratilishi, avvalo, yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratilishi va shu asosda aholi turmush farovonligining oshayotganligi bunga yaqqol dalildir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, qolaversa ishbilarmonlikni moliyaviy qo'llab quvvatlash «Asaka» aksiyadorlik tijorat banki Namangan viloyat filiali oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu boradagi ishlar ko'lamini kengaytirishda Yurtboshimizning 2015 yil 15 maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora tadbirlari to'g'risida», 2011 yil 24 avgustdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» hamda 2012 yil 18 iyuldagi «Ishilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari dasturilamal bo'lmoqda.

2016 yil 1 aprel holatiga bank filiali kredit qo'yilmalari hajmi 87,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Kredit qo'yilmalarining asosiy qismini uzoq muddatli kreditlar tashkil etadi.

Joriy yil birinchi choragi davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga jami 8,0 mlrd. so'mdan ziyod miqdorda kreditlar ajratilib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 baravarga oshdi. Natijada ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilib, yoshlar, ayniqsa ta'lim muassasalari bitiruvchilari ish bilan ta'minlandilar.

Aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va servis sohasini rivojlantirish maqsadlariga 1,3 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Bank filiali tomonidan tadbirkor ayollarga moliyaviy yordam ko'rsatish hamda xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb etish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, bank filiali tomonidan Prezidentimizning 2004 yil 25 maydagi «O'zbekiston Xotin qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni ijrosini ta'minlash

maqsadida tadbirkor ayollarga o'z biznesini tashkil etish va rivojlantirish maqsadlariga 1,8 mlrd. so'mdan ziyod miqdorda kreditlar ajratildi.

Mustakillik sharofati bilan oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik uchun keng yo'l ochilganligini har bir tuman va qishloq misolida ko'rish mumkin. O'z navbatida bank filiali tomonidan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun ko'plab miqdorda kreditlar ajratilganligi diqqatga sazovordir.

Bugungi kunda kasb - hunar kollejlari bitiruvchilari, yoshlarni har tomonlama moliyaviy qo'llab-quvvatlashda bank o'zining yordamini ayamay, ular uchun ishonchli hamkorga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyuldagi «Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda, ularga katta imkoniyatlar yaratilishida muhim o'rin tutmoqda. Bank filiali tomonidan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlari uchun imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kreditlar ajratilmoqda.

- Hurmatli Yurtboshimiz rahnamoligida yoshlarga ko'rsatilayotgan cheksiz g'amho'rlik va yaratilgan imkoniyatlar bizlarni ulkan ishlarni amalga oshirishga undamoqda - deydi, **Uchqo'rg'onlik yosh tadbirkor Ominaxon Mamajanova.** - Tadbirkorlik sohasiga qiziqib Uchqo'rg'on shaharchasida aholiga namunalii umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatishni maqsad qildim va «Asaka» bank Namangan viloyat filialiga biznes loyihamni taqdim etdim. Taqdim etilgan hujjatlar qisqa vaqtda ko'rib chiqilib, menga oshxona binosini ta'mirlash hamda zaruriy uskunalar va jihozlar olish uchun imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kredit ajratildi. Natijada 4 nafar yangi ishchi o'rinlari yaratildi. Hozirda shaharchamiz aholisi bizning xizmatlarimizdan mamnun bo'lmoqdalar. Mijozlarimiz soni ham kundan-kunga ko'payib, shunga yarasha daromadimiz ham oshib bormoqda.

Bank filiali viloyat aholisini oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlariga bo'lgan talabini qondirishda o'zining munosib hissasini qo'shmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi va 2009 yil 28 yanvardagi «Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida 4,7 mlrd.so'mdan ziyod miqdorda kreditlar ajratildi.

- Mamlakatimiz tadbirkorlari tomonidan amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, qo'lga kiritayotgan yutuqlar, erisilayotgan natijalarni ko'rib qalbing quvonchlariga to'ladi va g'ururlanasan – deydi, **Namangan tumanidagi «Iqbol» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Baxtiyor Sharipbaev.** -Tadbirkorlar erishayotgan muvaffaqiyatlarga yurtimizda Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan yaratib berilgan katta imtiyozlar va sharoitlar sabab bo'lmoqda. «Asaka»

bankning Namangan viloyat filialidan sutni qayta ishlovchi uskunalari olish uchun imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kredit olib, korxonamizni ishga tushirdik. Korxonamizda 5 nafar yangi ish o'rinlari yaratilib, ishchi-xodimlar soni 15 nafarga yetdi. Hozirda Namangan shahri va tumanlardagi maktabgacha ta'lim muassasalarini, shifo maskanlarini, qolaversa aholini sifatli va ekologik toza sut mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishga astoydil bel bog'laganmiz. «Asaka» bank jamoasiga o'z minnatdorchiligimni bildirib, ikki tomonlama, o'zaro foydali hamkorlik kelgusida ham davom etishiga umid qilaman.

– Respublikamiz iqtisodiyotida xususiy mulkning o'rni va rolini tubdan oshirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk ulushini izchil oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish orqali tadbirkorlarning huquqlari mustahkamlanib borayotganligi biz tadbirkorlarni quvontiradi va mas'uliyatli bo'lishga undaydi – deydi, **Namangan shahridagi «GROUP IMPEX TEXTILE» mas'uliyati cheklangan jamiyat rahbari Mansurbek Qambarov.** –Ip gazlamalardan erkaklar va ayollar hamda bolalar uchun tikuv mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va kengaytirish maqsadida ishlab chiqilgan biznes rejamizni «Asaka» bank Namangan viloyat filialiga taqdim etdik. Qisqa vaqt ichida bank krediti hisobiga xorijdan yuqori unumdor va kam elektr energiyasi sarf qiladigan tikuvchilik dastgohlarini oldik. Loyihani amalga oshirilishi natijasida 5 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi. Kelgusida bank bilan hamkorlikni yanada rivojlantirib, faoliyatimiz ko'lamini kengaytirmoqchimiz.

–Namangan shahrida aholiga sifatli xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan, barcha qulayliklarga ega zamonaviy majmuani qurilishini yakunlash uchun «Asaka» bank Namangan viloyat filialidan kredit oldik – deydi, **«Diyor Savdo qurilish» KTXF rahbari Abduvohid Azimov.** –Qo'shimcha ravishda 18 nafar yangi ish o'rinlari tashkil etildi va bunga shahrimiz yoshlari ishga qabul qilindi. Mamlakatimizda ishbilarmonlarga ko'rsatilayotgan g'amho'rlik, taqdim etilayotgan moliyaviy xizmatlar yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga undamoqda. Bu borada «Asaka» bank bizga moliyaviy ko'mak berishiga ishonamiz.

Muhtasar qilib aytganda, «Asaka» bank Namangan viloyat filiali jamoasi asosiy e'tiborni, qabul qilingan puhta kredit siyosati asosida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining istiqbolli loyihalarini moliyalashtirishda qaratmoqda. Joriy yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga bank filiali tomonidan 48,0 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratilishi rejalashtirilgan.